

So'z o'yini

Muallif: Nargiza Pulatova

1929 yilning Dekabr oyida qaysi o'yin ixtiro qilinganini bilasizmi? Bingo! Bu o'yin juda mashhur bo'lib, hozir biz buni o'qishni o'rgatishda bir vosita sifatida foydalanamiz. Buning uchun FARZANDingizga ma'lum bo'lgan so'zlar majmuasini aniqlab oling. Masalan, non, oyi, ada, olma kabi sodda so'zlardan boshlasangiz sekin-asta murakkabroq yoziladigan so'zlarga o'tib borasiz. Tanlab olingan so'zlarni rasmda ko'rsatilgandek katakchalarga joylashtiring va ularni birma-bir ko'rsatib, to'g'ri talaffuz qiling.

Bu jarayonni har kuni har yarim soat-bir soatlarda takrorlang. Keyin 1 haftadan so'ng sekin FARZANDingizdan ada so'zini ko'rsatishini so'rang. Topsa, maqtang. Topmasa, o'rgatishda davom etavering. Keling, avvalo bu shaklni yasab olamiz. Kvadrat ko'rinishidagi rangli karton olamiz. Rangli karton bo'lmasa oq kartonning ustiga rangli qog'oz yopishtirsa ham bo'ladi. Uni 9 katakchaga marker yordamida bo'lib, har bir katakchaga bitta so'z yozamiz. Asosiy vositamiz tayyor. O'yinni yana boshqacha tarzda o'tkazsa ham bo'ladi. Ushbu kartonga yozilgan so'zlarning ma'nosi, ta'rifini alohida qog'ozchalarga yozib olamiz. Masalan, "o'tning rangi" - yashil so'zi uchun, "sekin so'zining teskarisi" - tez so'zi uchun. Keyin bolaga ta'rif yozilgan qog'ozchalarni birini tanlab, ta'rifi keltirilgan so'zni topishi kerakligini aytamiz. Bingo deb belgilash uchun esa tugmachalardan foydalanishingiz mumkin. O'ynash uchun 1 ta odam qog'ozchalarni tanlab baland ovozda o'qiydi. Qolgan ishtirokchilar esa o'sha so'zni kim tez topishga o'ynaydilar.